Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi eksponatlari hamda badiiy ashyolar katalogi

Kuni kecha O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyotida "Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi ekspozitsiyasi bo’limi va fondida saqlanayotgan eksponatlar hamda badiiy ashyolar katalogi" nomli kitob nashrdan chiqdi.



Kichik kirish so’zi taqdim etilgan mazkur katalog olti bo’limni o’z ichiga oladi. Dastlabki bo’lim Muzey ekspozitssiyasidan joy olgan toshbosma va boshqa nodir bosma kitoblarning tavsifiga bag’ishlangan. Keyingi bo’limdan "Temuriylar davri madaniy hayoti" aks etgan.

"Alisher Navoiy hayoti, ijtimoiy-siyosiy hamda ijodiy faoliyati", "Bobur va boburiylar davri adabiyoti", "XVI-XIX asrlar o’zbek mumtoz adabiyoti", " XX asr o’zbek mumtoz adabiyoti" kabi bo’limlarda Muzeydan joy olgan eksponatlarining tavsifi keltirilgan. Mazkur katalog muzeyshunos, adabiyotshunos, san’atshunos va sohaga qiziquvchi kitobxonlarga mo’ljallangan.